

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TASHMUXAMEDOVA YAYRA ATXAMOVNA

O'ZBEKISTONDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI
TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2024-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
economical sciences**

Tashmuxamedova Yayra Atxamovna O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish.....	3
Ташмухамедова Яйра Атхамовна Совершенствование налогового администрирования в Узбекистане.....	27
Tashmukhamedova Yayra Atkhamovna Improving tax administration in Uzbekistan	53
E'lon qilingan ishlar ro'yxati Список опубликованных работ List of published works	58

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2023.3.PhD/Iqt.3278 raqam bilan ro'yxatga olingan**

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsuc.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziyounet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Karimov Norboy G'aniyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Toshmurodova Buvsara Egamovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Boymurodov Sodiqjon Roziqovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «29» 02 soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-01-49, (99871) 239-43-51. e-mail: tdiu@tdiu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1406 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72; 239-01-49. faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «13» 02 kuni tarqatildi.

(2024 yil «13» 02 dagi 12 raqamli reestr bayonnomasi)



M.P. Eshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosidagi global raqobatlashuvning keskinlashuvi sharoitida mamlakatdagi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda soliq ma'muriyatchiligining ahamiyati ortib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, "2021-yilda IHRT mamlakatlari orasida soliqning YaIMga nisbati Frantsiyada 45,1 foizni, Daniyada 46,9 foizni, Norvegiyada 42,2 foizni, Shvetsiyada 42,6 foizni, Buyuk Britaniyada 33,5 foizni, AQShda 26,6 foizni tashkil etgan"¹. Bir tomondan soliq tizimi byudjetni to'ldirish vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi.

Jahondagi nufuzli moliyaviy institutlar tomonidan soliq to'lovchilarning xulq-atvori, soliq tizimini optimallashtirish, QQS va aksiz solig'ini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliq siyosatini yanada liberallashtirish, soliqqa tortish tartibini soddalashtirish, soliq yukini pasaytirish, xo'jalik sub'ektlarining huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning moliya-xo'jalik faoliyatlariga aralashishga chek qo'yish bo'yicha choralar majmuini, aholi real daromadlari o'sishiga ko'maklashadigan, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga asos bo'lib xizmat qiladigan keng ko'lamli soliq islohotlari amalga oshirish, soliq yukini bosqichma-bosqich pasaytirish, soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligi va davlat soliq xizmati organlari faoliyatini isloh qilishda soliq munosabatlari tizimida ma'muriy bosimni kamaytirish hamda uning ishtirokchilari o'zaro hamkorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatni 2022-2026-yillarda rivojlantirishning bosh strategiyasida 2026-yilga soliq yukini yalpi ichki mahsulot 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga tushirish rejalashtirilgan². Soliq ma'muriyatchiligi tizimini takomillashtirish borasidagi islohotlar samarasi o'laroq 2015-2022-yillar mobaynida O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ro'yxatdan o'tganlar sonidagi ulushi 56,2 foizdan 60,5 foizgacha hamda iqtisodiyotda ish bilan band bo'lganlar umumiy miqdoridagi ulushi 74,8 foizgacha o'sgan³. Mamlakatdagi iqtisodiy barqarorlikni rivojlantirishda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish muhim bo'lib, soliq to'lovchilar va davlat soliq xizmati organlari o'rtasidagi munosabatlardagi ma'muriy bosimni pasaytirish va bartaraf etish, davlat soliq organlari faoliyati samaradorligini baholash metodikasini takomillashtirish masalalariga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining amalga oshirilishi dolzarb ahamiyatga ega.

¹ <https://www.oecd.org/tax/tax-policy/revenue-statistics-highlights-brochure.pdf>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2022 yil 29 yanvar.

³ Ibragimov B.B. Soliq ma'muriyatchiligi: muammo va yechimlar. Monografiya. T.: Noshirlik yog'dusi. 2022.11-b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi to'g'risida", 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6098-son "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari hamda mazkur sohaga oid boshqa tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Moliya tizimi va soliq organlari evolyutsiyasi N.G. Privalov, S.G. Privalova, V.M. Pushkaryova, B.M. Sabanti, A.V. Tolkushkin, D.G. Chernik⁴ kabi olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, A.M. Baltina, S.V. Barulina, N.G. Ivanova, T.M. Kovaleva, N.M. Sabitovalar tadqiqotlari davlat mablag'larini boshqarishning metodologik va amaliy jihatlariga bag'ishlangan⁵.

Davlat soliq organlari faoliyati samaradorligini baholash, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish masalalari M.K. Aristarkhova, M.V. Vasilyeva, N.G. Viktorova, E.S. Vilkova, L.I. Goncharenko, I.V. Deputatova, N.A. Dorofeyeva, D.V. Krilov, E.I. Komarova, M.V. Mishustin, X.M. Musayeva, E.V. Nadtochiy, L.P. Pavlova, V.G. Panskov, M.R. Pinskaya, E.E. Smirnov, A.I. Sorokina, A.V. Suvorov, M.A. Troyanskaya, E.P. Fomin, F.F. Xanafeyev, A.T. Sherbininlarning tadqiqot ishlari o'rganilgan⁶.

⁴ Привалов, Н. Г. Налоговая система: теоретический и методологический аспект. Налоговый продукт: монография / Н. Г. Привалов С. Г. Привалова. – Екатеринбург: Уральское изд-во, 2011. – 556 с. Пушкарева, М. В. История мировой и русской финансовой науки и политики: монография / М. В. Пушкарева. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 272 с. Сабагити, Б. М. Развитие финансов и финансовой науки России (период феодализма): монография / Б. М. Сабагити. – Иркутск: Изд-во Иркут. Ун-та, 1986. – 108 с. Толкушкин, А. В. История налогов в России: монография / А. В. Толкушкин. – М.: Магистр: ИНФРА-М, 2011. – 480 с. Черник Д. Г. К вопросу о налоговой политике современной России / Д. Г. Черник // научные труды Вольного экономического общества России. – 2015. – Т.195 – С.975-997.

⁵ Балтина, А. М. Реализация органической модели государственного управления общественными финансами // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – №2-2. – С.448. Барулин, С. В. Теория финансов и экономическое развитие регионов России: монография / С. В. Барулин, В. И. Самаруха. – Иркутск: Изд-во БГУЭП, 2011. – 598 с. Иванова, Н. Г. Финансовая политика: вопросы методологии и современной российской практики / Н. Г. Иванова // Вестник Финансового университета. – 2014. – №1 (89). – С.64-73. Ковалева, Т. М. Место и роль бюджетного механизма в управлении бюджетами в субъектах РФ / Т. М. Ковалева // Сборник конференций НИЦ Социосфера. – 2013. – №57-2. – С.100-106. Сабитова, Н. М. К вопросу о бюджетно-налоговом администрировании / Н. М. Сабитова // В сборнике: Социально-экономические проблемы становления и развития рыночной экономики: материалы докладов научно-практической конференции. Том I. – 2011. – С.289-291.

⁶ Аристархова, М.К. Совершенствование управления реализацией налоговых проверок / М.К. Аристархова, А.Н. Воронина // Экономика региона. – 2011. – №3. – С.147-155. Васильева, М.В. Оценка эффективности контрольно-проверочной работы налоговых органов / М.В. Васильева // Управленческий учет. – 2011. – №4. – С.66-73. Викторова, Н.Г. Проблематика научно-технологического развития в налоговой сфере / Н.Г. Викторова, Е.Н. Евстигнев // Инновационное развитие экономики. – 2016. – № 3-1 (33). – С. 36-41. Вилкова, Е.С. Передовой опыт налогового администрирования в различных странах / Е.С. Вилкова // Известия Иркутской государственной экономической академии. – 2014. – С.13-22. Гончаренко, Л. И. К вопросу о понятийном аппарате налогового администрирования / Л.И. Гончаренко // Налоги и налогообложение. – 2010. – №2. – С.17-24. Депутатова, И.В. Методика комплексной оценки качества труда налоговых инспекторов как способ повышения эффективности контрольнопроверочной деятельности налогового органа / И.В. Депутатова // Научные записки ОрелГИЭТ. – 2012. – №1(5). – С.224-231. Дорофеева, Н.А. О показателях оценки эффективности деятельности налоговых инспекций / Н.А. Дорофеева, А.В. Суворов //

Soliq tizimi va soliq munosabatlarini tartibga solishni takomillashtirish masalalari Sh.Q.Gataulin, L.V.Xvan, Q.A.Yaxyoyev, M.I.Almardanov, A.S.Jo'rayev, B.I.Isroilov, S.K.Xudoyqulov, U.A.Radjabov, I.Niyozmetov, Sh.Toshmatov, O.Abduraxmonov, A.Vaxabov, E.Gadoyev, T.Malikov, O.Olimjonov, X.Sobirov, B.E.Toshmuradova, N.Xaydarov, B.B.Ibragimov kabi mamlakatimiz olimlarining ilmiy ishlarida o'rganilgan⁷.

Mazkur olimlarning ishlari asosan soliqqa tortish va soliq nazorati masalalariga bag'ishlangan. Soliq organlari faoliyatining sifatini baholash masalalari nazariy va amaliy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmay qolmoqda. Natijada islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad soliq to'lovchilar va soliq organlari o'zaro hamkorligiga erishish bo'yicha belgilangan vazifalar to'liq ijrosini topmasdan qolishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish va mavjud muammolar yechimini topish dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Бухгалтерский учет в строительных организациях. – 2010. – №7. – С.61-64. Крылов, Д.В. Экономическая оценка организации налогового администрирования: автореф. дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Крылов Денис Владимирович. – Ижевск, 2000. – 27 с. Комарова, Е.И. Развитие налогового контроля в России и оценка его эффективности / Е.И. Комарова // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – №1. – С.670-677. Мишустин М.В. Механизм государственного налогового администрирования в России: автореф. дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Мишустин Михаил Владимирович. – Москва, 2003. – 32 с. Мусасва, Х.М. Налоговое администрирование в контексте становления и развития налоговой системы Российской Федерации / Х.М. Мусасва // Экономика и предпринимательство. – 2017. – №67(84). – С.69-73. Надточий, Е.В. Внедрение органами ФНС России Концепции открытости федеральных органов исполнительной власти / Е.В. Надточий // Налоги и налогообложение. – 2015. – №1. – С.39-43. Павлова, Л. П. Отдельные аспекты совершенствования налоговой политики / Л.П. Павлова, В.В. Попкратов // Финансы. – 2010. – №4. – С.31-35. Пансков, В.Г. Новые подходы к теории и практике налогового администрирования / В.Г. Пансков // Международный бухгалтерский учет. – 2014. – №10. – С.60-63. Пинская, М.Р. Методология управления рисками государственного стимулирования экономического роста: налоговые аспекты / М.Р. Пинская // Инновационное развитие экономики. – 2016. – №3-1(33). Смирнов, Е.Е. Актуальные проблемы оценки эффективности деятельности налоговых органов / Е.Е. Смирнов // Управленческие науки в современной России. – 2014. Т.1. – №1. – С.134-141. Сорокина, А.И. Оценка эффективности деятельности налоговых органов / А.И. Сорокина // Сборник научных трудов Ангарской государственной технической академии. – 2013. Т.1. – №1. – С.306-308. Суворова, Е.В. Горизонтальный мониторинг: новый подход к налоговому администрированию / Е.В. Суворова, Д.М. Казанский // Законы России: опыт, анализ, практика. – 2014. – №3. – С.17-24. Троянская, М.А. Совершенствование администрирования как резерва роста доходов бюджета / М.А. Троянская // Азимут научных исследований: экономика и управление. – 2017. – Т.6. №2(19). – С.274-278. Фомин, Е.П. Проблемы оценки эффективности работы налоговых органов / Е.П. Фомин, Е.Д. Шепелева // В сборнике: Наука XXI века: актуальные направления развития: материалы международной заочной научно-практической конференции. – С.766-771. Ханафеев, Ф.Ф. Информационное обеспечение международного администрирования / Ф.Ф. Ханафеев // Информационное развитие экономики. – 2013. – №4-5 (16). – С.47-52. Щербинин, А.Т. Информационные технологии в налоговом администрировании / А.Т. Щербинин // В сборнике: Актуальные вопросы совершенствования системы учета, анализа и аудита в организациях: материалы Международной научно-практической конференции. – 2014. – С.323-336

⁷Gataulin Sh. Soliqlar va soliqqa tortish. – T.: DSQ, 1996. – 241 b.; Yaxyoyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan va texnologiyalar, 2003. – 247 b.; B.I.Isroilov. i.f.d dissertatsiyasi. Soliqlarning moliyaviy hisobi va tahlilining metodologik asoslari. Avtoreferat. Toshkent – 2006 y. 19-bet. Xudoyqulov S.K. i.f.d. dissertatsiyasi. Soliq tushumlarini prognoz qilish usullarini takomillashtirish. Avtoreferat. Toshkent-2018y., Niyazmetov I. "Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta'minlash" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi Avtoreferati. T.: BMA, 2019 yil; Toshmatov Sh. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli: Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2008. – 204 b.; Abduraxmanov O. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimi va uni takomillashtirish masalalari. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: DJQA, 2005. – 40 b.; Vahobov A., Jo'rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. – T.: Sharq, 2019. – 448 b.; Gadoyev E. va boshq. Soliqqa oid xatolar. – T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 1996. – 128 b.; Malikov T., Olimjonov O. Moliyaviy menejment. – T.: Akademiya, 1999. – 254 b.; Sobirov X.P., Fattaxov A.A., Iminov O.H. "Налогообложение малого и среднего бизнеса в Республике Узбекистан" - Т., Молия, 2000. - 114 с.; Toshmuradova B.E. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. – T.: Yangi asr avlodi, 2002. – 128 b.; Xaydarov N. Moliya. 1-qism. – T.: Akademiya, 2001. – 185 b.; Ibragimov B.B. Soliq ma'muriyatchiligi: muammo va yechimlar. – T.: "Noshirlik yog'dusi", 2022 y. – 226 b.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishga oid ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

milliy va xorijiy soliq ma'murchiligiga oid nazariy qarashlarni tadqiq etish va mualliflik ta'rifini ishlab chiqish;

O'zbekiston soliq ma'muriyatchiligining tashkiliy va huquqiy asoslarini tasniflash;

soliq ma'muriyatchiligi amaldagi holati tahlil qilish va soliq xavfi darajasi hamda uni aniqlash mezonlarini ishlab chiqish;

soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish va elektron nazorat tizimini joriy etish bo'yicha taklif kiritish;

soliq xodimlari faoliyat ko'rsatkichlarini tahlil qilish va ularni baholash ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqish;

soliq idoralari faoliyatining samaradorligini baholash tizimini tadqiq qilish va uni takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida davlat fiskal siyosati ijrosini ta'minlashga oid tashkiliy-huquqiy va moliyaviy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti vakolatli davlat organlarining soliq qonunchiligini ta'minlashga oid ma'muriy faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada mantiqiy, tizimli va qiyosiy tahlil, umumlashtirish, guruhlashtirish, iqtisodiy-matematik modellashtirish va prognozlash kabi usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

soliq ma'muriyatchiligida soliq xizmati organlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini belgilash va hisobotlarini taqdim etilishi uslubi elektron xizmat ko'rsatish sifatini baholash ko'rsatkichlarini kiritish orqali takomillashtirilgan;

yuridik shaxs hamda yakka tadbirkor uchun soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali xizmat ko'rsatish sifatini baholashning $B_{yush1} = 0$ ($YuSh_{sb} > YuSh_{ib}$ holatda), $B_{yush1} = 1$ ($YuSh_{sb} \leq YuSh_{ib}$ holatda), $B_{yatt2} = 1$ ($MS_{yatt} < 0,25$ holatda), $B_{yatt2} = 0$ ($MS_{yatt} \geq 0,25$ holatda) shkalasidan foydalanish taklif etilgan;

soliq xizmati organlari tomonidan soliq nazorat-tekshiruvlari o'tkazishda hisob-tahlil asosida soliq huquqbuzarliklarini aniqlash va nazorat-tekshiruv tadbirlarining elektron ish yurituvini joriy etish samaradorligi asoslangan;

soliq xizmati organi faoliyatida soliq xavf-xatari, muntazam va nomuntazam tavakkalchiliklarini belgilovchi omillarni aniqlash hamda baholash shkalasini ishlab chiqish asosida soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

soliq xodimlari mehnatini rag'batlantirish tizimini takomillashtirish maqsadida xodimlar faoliyati natijalarini baholash ko'rsatkichlari tizimidan foydalanish tavsiya etildi;

soliq idoralari faoliyatining samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimini takomillashtirish va kompleks baholash maqsadga muvofiqligi asoslandi;

strategik ahamiyatga ega bo'lmagan yirik soliq to'lovchilarni toifasiga ko'ra hududiylik tamoyili asosida hisobga olishni tashkil etish tavsiya qilindi;

soliq xavfi darajasini o'rta, past va yuqori darajalar bo'yicha guruhlash taklif etildi;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi amalga oshirilgan yondashuvlar, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tadqiqot ishlari samaradorligining matematik-statistik ishonchlilik intervalida aniqlik kiritilganligi, statistik qonuniyatlarda keltirilgan ishonchlilik talablariga javob berishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma'lumotlari va Soliq qo'mitasi kabi tashkilotlarning moliyaviy hisobotlari va amaliy ma'lumotlariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda bayon etilgan xulosa va takliflardan soliq mexanizmining ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishida o'z ifodasini topadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, soliq to'lovchilar va davlat fiskal organlar o'zaro hamkorlik tizimini yo'lga qo'yish, tadbirkorlik faoliyatini soliq mexanizmlari vositasida rag'batlantirishga doir dasturlar va yo'l xaritalari ishlab chiqishda foydalanish hamda kadrlar tayyorlash tizimida o'qitiladigan "Soliq tizimi va uni takomillashtirish", "Yuridik shaxslarni soliqqa tortish", "Soliq ma'muriyatchiligi" kabi fanlarning o'quv dastur va qo'llanmalarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

soliq ma'muriyatchiligida soliq xizmati organlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini belgilash va hisobotlarini taqdim etilishi uslubi elektron xizmat ko'rsatish sifatini baholash ko'rsatkichlarini kiritish orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi PQ-4389-sonli "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida tasdiqlangan "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish Strategiyasi"da o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2023-yil 19-yanvardagi 18/1-06091-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida soliq organlari xodimlari tomonidan samarali mehnat faoliyatiga bo'lgan rag'batni kuchaytirish orqali soliq xizmati ko'rsatish sifati darajasini oshirish imkoni yaratilgan;

yuridik shaxs hamda yakka tadbirkor uchun soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali xizmat ko'rsatish sifatini baholashning $B_{yush1} = 0$ ($YuSh_{sb} > YuSh_{ib}$ holatda), $B_{yush1} = 1$ ($YuSh_{sb} \leq YuSh_{ib}$ holatda), $B_{yatt2} = 1$ ($MS_{yatt} < 0,25$ holatda), $B_{yatt2} = 0$ ($MS_{yatt} \geq 0,25$ holatda) shkalasidan foydalanish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-iyundagi 359-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat soliq qo'mitasining Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi va ushbu strategiyani amalga oshirish chora-tadbirlari"da o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2023-yil 19-yanvardagi 18/1-06091-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida yuridik shaxs hamda yakka tadbirkor uchun soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali xizmat ko'rsatish sifatini

baholash imkoni yaratilgan;

soliq xizmati organlari tomonidan soliq nazorat-tekshiruvlari o'tkazishda hisob-tahlil asosida soliq huquqbuzarliklarini aniqlash va nazorat-tekshiruv tadbirlarining elektron ish yurituvini joriy etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6098-sonli "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"da o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2023-yil 19-yanvardagi 18/1-06091-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida soliq xizmati organlari tomonidan olib borilayotgan nazorat-tekshiruv tadbirlarining soni kamayib, tekshiruv tadbirlari sifati yanada yaxshilashga erishilgan;

soliq xizmati organi faoliyatida soliq xavf-xatari, muntazam va nomuntazam tavakkalchiliklarini belgilovchi omillarni aniqlash hamda baholash shkalasini ishlab chiqish asosida soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2023-yil 19-yanvardagi 18/1-06091-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida berilgan taklif O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 7 yanvardagi 1-son Qarori bilan tasdiqlangan "Soliq xafini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni aniqlash va ularni soliq xavfi darajasi bo'yicha toifalash tartibi to'g'risida"gi NIZOMda o'z aksini topgan hamda soliq to'lovchilar soliq to'lamaslik xavfini belgilash asosida soliq xatarlarini bartaraf etishga erishildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsiyaning asosiy g'oya va xulosalari 2 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya ishi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy ilmiy nashrlarda 3 ta, nufuzli xorijiy jumallarda 6 ta ilmiy maqola, shuningdek ilmiy-amaliy anjumanlarda 9 ta ma'ruza va tezislar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'qqizta paragrafni o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Soliq ma'muriyatchiligining nazariy, huquqiy va tashkiliy asoslari" deb nomlangan birinchi bobida soliq ma'muriyatchiligining

nazariy, huquqiy va tashkiliy asoslari, hamda soliq ma'muriyatchiligining tashkil etilishida xorijiy mamlakatlar tajribasi yoritilgan.

“Soliq ma'muriyatchiligi” tushunchasi O'zbekistonda nisbatan yaqinda qo'llanila boshlangan bo'lsada, milliy davlatchilik tizimida soliq munosabatlarini tartibga solish yangi qo'llanilayotgan amaliyot emas. Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan davlatlar amaliyotida soliq munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish tizimi qadimdan foydalanilgan ma'muriy mexanizmdir. Soliq to'lovchilar bilan soliq to'lovlarini undirishga oid tizimini tartibga solish masalalarini tadqiq qilish natijasida B.B.Ibragimov tomonidan soliq siyosati shakllantirish va soliq munosabatlarini tartibga solishning huquqiy asoslari sohibqiron Amur Temur hukumronlik davrida rivojlangani va Amur Temur tomonidan dunyo soliqqa tortish nazariyasi, tamoyillari hamda soliq ma'muriyatchiligi va qonunchiligiga yevropalik olimlardan 400 yil muqaddam asos solingan, degan ilmiy xulosalarga kelingan⁸.

Tadqiqot jarayonida soliq ma'muriyatchiligining muhim elementlaridan biri soliq nazorati ekanligini aniqlandi. Muallifning xulosasiga ko'ra, soliq ma'muriyatchiligi boshqaruvning funktsiyalaridan bittasigina bo'lgan nazoratni amalga oshirishgagina qaratilmagan. Hozirgi vaqtda boshqaruvda turli xil yondashuvlar mavjud. Ulardan biri jarayonli yondashuv bo'lib, unda boshqaruvga boshqaruvning o'zaro bog'liq funktsiyalari yig'indisi sifatida qaraladi. Boshqaruvning har bir funktsiyasi bir qator o'zaro chambarchas bog'liq harakatlardan iborat. Ma'muriyatchilik – boshqaruv borasidagi o'zaro bog'liq harakatlar jarayoni hisoblanar ekan. Garchi “soliq ma'muriyatchiligi” tushunchasi O'zbekistonda qonun hujjatlari bilan mustahkamlanmagan bo'lsa-da, olimlar, qonunchilik va ijro hokimiyatiga mansub shaxslar tomonidan keng qo'llanilmoqda.

Dissertatsiyada ko'plab tadqiqotchi va olimlarning o'z qarashlarida soliq ma'muriyatchiligini faqat bir tomonlama ko'rib chiqilgan deb hisoblaymiz. Shunday ekan. xorijiy va mahalliy olimlarning soliq ma'muriyatchiligiga bergan ta'riflarni o'rganib, soliq ma'muriyatchiligiga quyidagicha ta'rifini ishlab chiqdik. Ya'ni, soliq ma'muriyatchiligi - bu davlat boshqaruvi faoliyati bo'lib, davlat fiskal siyosatida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash va byudjet daromadlarini shakllantirish maqsadlarida vakolatli davlat organlari tomonidan qo'llaniladigan iqtisodiy-huquqiy mexanizmlar majmuidir.

Shuningdek, nazariy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, nazorat - soliq ma'muriyatchiligi asosiy funktsional elementlaridan biri degan xulosaga kelindi. Bundan tashqari faoliyatni tashkil qilish, rejalashtirish, motivatsiya – soliq ma'muriyatchiligi funktsiyalariga kirishi va ushbu funktsiyalar soliq ma'muriyatchiligining asosiy nazorat funktsiyasini samaradorligini ta'minlashga xizmat qilishini ta'kidlash zarur.

Bizning fikrimizga ko'ra, soliq ma'muriyatchiligi byudjet daromadlarini boshqarish tizimida ishtirok etadi. Chunki byudjet daromadlarini shakllanishi yuqorida qayd etilganidek, asosan soliq tushumlari evaziga sodir bo'ladi. Shu bois

⁸ Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li. Theoretical and legal issues of tax relations regulation. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Received: 02 Jan 2020 | Revised: 12 Feb 2020 | Accepted: 17 Mar 2020. ISSN: 1475-7192. Ibragimov B.B. Soliq ma'muriyatchiligi: muammo va yechimlar.. –T.: "Nashirlik yog'dusi", 2022 y. - 226 b.